



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



№4(2)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 520 sahifa,  
13-aprel, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### **EDITOR-IN-CHIEF:**

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### **DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### **EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Alohida ehtiyojga muhtoj bolalarga matematika darslarida integratsion yondashuvni amalga oshirish .....	10
<a href="#">Mamadjanova Ma'muraxon Kadirjanovna</a>	
O'quvchilarda raqamli madaniyatni shakllantirishning nazariy asoslari.....	13
<a href="#">Boltayeva Go'zal Komilovna</a>	
Inkluziv ta'lim sharoitida o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini aniqlash metodologiyasi .....	21
<a href="#">D. Sh. Jo'rayeva, J. A. Jovliyev</a>	
Bolalarda leksik-grammatik nutq kamchiliklarini bartaraf etishda kontekstli texnologiyalardan foydalanish .....	25
<a href="#">Abdullayeva Yoqutjon Qalandar qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	30
<a href="#">Abduvaliyeva Sabina Kurbonali qizi</a>	
O'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari.....	35
<a href="#">Aripov Shokirjon Olimovich, Raxmatillayeva Sug'diyona Muhammadjon qizi</a>	
Pedagogik intuitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodikalar .....	39
<a href="#">Axmedov Jaloliddin Oribovich</a>	
The Impact of AI-Generated English Learning Materials Based on Uzbek Rural Life on the Learning Motivation of Rural Students.....	42
<a href="#">Baxramova Malika Muzaffarovna</a>	
Raqamli kutubxonalarda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish texnologiyalari va imkoniyatlari .....	47
<a href="#">Choriyeva Zarina Anvarbek qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik savodxonlikni shakllantirishning nazariy-pedagogik asoslari ...	50
<a href="#">D. Teshaboyev, M. Sotvoldiyeva</a>	
Oliy ta'limda tblt metodik modeli asosida baholash tizimini takomillashtirish .....	53
<a href="#">Djurayeva Nargiza Kudratillayevna</a>	
Yangi O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik etikaning rivojida xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	59
<a href="#">Dushayeva Nazokat Sharofiddinovna</a>	
Uilyam Shekspir tragediyalarining o'zbek adabiyotidagi o'rni.....	62
<a href="#">Ergasheva Mehriyona</a>	
Qizlarning oilaviy kompetensiyasi uchun ijodiy pedagogika: Koreya dizayn ta'limi modelini O'zbekiston kontekstiga moslash.....	65
<a href="#">G'ayratova Mohidil Zafar qizi</a>	
Jismoniy tarbiya darslarida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda umumrivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish metodikasi .....	69
<a href="#">Maksetova Nurjamal Kuatovna</a>	
Integrativ ta'lim muhitida bo'lajak surdopedagoglarning metodik kompetensiyalarini shakllantirish .....	72
<a href="#">Malikova Xurshida Ikramovna</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarda ko'p uchraydigan tovush talaffuzi kamchiliklari va ularni bartaraf etishda lopedik usullar.....	75
<a href="#">Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi</a>	
Talabalarga an'anaviy xonandalik ijrochiligini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	78
<a href="#">Muxammadova Ozoda Muzrabovna</a>	
Hayotiy sifat tushunchasini psixologik mazmuni.....	82
<a href="#">N. G. Pulatova</a>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida ehtiyojlarga ega o'quvchilarni qo'llab-quvvatlashning kompleks yondashuvlari .....	85
<a href="#">Nazarova Dildora Asatovna, Abdurashidova Feruza Qaxramonovna</a>	
Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchining ko'p qirrali pedagogik faoliyati va uning nazariy asoslari .....	89
<a href="#">Nazarova Dildora Asatovna, Axmedova Aziza Temurovna</a>	



Xo'ja ahmad Yassaviy e'tiqod tarbiyasi haqida.....	93
<i>Norova Sevara Uyg'un qizi</i>	
Matritsa va uning determinanti mavzusini o'qitish orqali bo'lajak iqtisodchilarning analitik tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari.....	97
<i>Nuriddinov Jalolxon Tursunboy o'g'li, Otaboyev Muxsinjon Muqimjonovich</i>	
Odam anatomiyasi darslarida interfaol va multimedia vositalaridan foydalanish yo'llari.....	104
<i>Nurmatov Norqobil Jo'rayevich, Qo'chqorova Moxira Dilmurod qizi, Boxodirova Nilufar Ikrom qizi</i>	
AQSh ta'lim tizimining o'ziga xos jihatlari va bugungi kundagi rivojlanishi.....	110
<i>Orishev Jamshid Bahodirovich</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirishda xorijiy ta'limi tajribalari.....	116
<i>Pardayeva Gulbahor Jalg'ashovna</i>	
Kreativ ta'lim texnologiyalarining pedagogik mohiyati.....	119
<i>Sariboyev Nurali Abdunazarovich</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy pedagogik tizimdagi o'rni.....	122
<i>Siddiqov Azamat Muhammadjon o'g'li</i>	
Konstruktiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida 4K ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi.....	126
<i>Sobirova Sarvinoz Quvondiqovna</i>	
Criteria of Scientific Activity Implementation of Physical Culture Education Students.....	133
<i>Sapayev Ruzmat Radjapovich</i>	
O'smir yoshdagi o'quvchilarning ma'naviy ehtiyojlarini shakllantirishning nazariy asoslari.....	136
<i>Tilovova Qizlarxon Ishpulat qizi</i>	
PIRLS tadqiqotida so'rovnomalarning qamrov doirasida maktab muhiti.....	141
<i>To'qliyeva Matluba Boqiyevna</i>	
Onlayn til o'rganish platformalarining esl o'quvchilarining og'zaki nutq ishonchi (speaking confidence) ga ta'siri.....	146
<i>Tojiboyeva Shohistaxon, Omonova Nargiza</i>	
Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishda kommunikativ o'yinlarning ahamiyati.....	151
<i>Toshpo'latova Sevinch O'ral qizi</i>	
Maktab o'quvchilarining jismoniy sifatlarini tarbiyalashning samarali uslublari.....	155
<i>Turdiyev Azam Xasanovich</i>	
O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro baholash tizimini tatbiq etish imkoniyatlari.....	158
<i>Turobov Mamarajab Sodiq o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'limda ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish.....	163
<i>Umirzoqova Surayyo Xudoyberdiyevna</i>	
Talabalarda perspektiv tasvir bajarishga oid ko'nikmani shakllantirishda CAD dasturlaridan amaliy foydalanish imkoniyatlari.....	165
<i>Valiyev A'zamjon Nematovich, Toxirov Sardorbek Muzaffar o'g'li</i>	
Duduqlanishni bartaraf etishda qo'llaniladigan usullar va vositalar.....	173
<i>Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish usullari.....	176
<i>Xudoyberdiyeva Dildora Nazarjon qizi, Mambetova Lobar Mirzavali qizi</i>	
Duduqlanishga ega bolalar nutqini rivojlantirishda kompleks korreksion ishlar tizimi.....	179
<i>Xusanova Nozimaxon Zuxriddin qizi</i>	
Sirdaryo viloyatida tabiat va mehnat jarayonlarining tasviriy san'at orqali estetik va ekologik ifodasi.....	182
<i>Yorlaqova Malika Ahmad qizi</i>	
The Relevance of Artificial Intelligence in Teaching the English Language.....	186
<i>Yusupova Gulnoza Mirzoyevna</i>	
Umumta'lim maktabida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kuzatiladigan nutq xususiyatlari.....	189
<i>Zairova Nigora</i>	

Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari .....	193
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Педагогические технологии совершенствования физических качеств как основы здорового образа жизни .....	197
<i>Журабаев Абдукарим Маматкулович</i>	
Формирование духовно-нравственной компетентности будущих учителей как педагогическая проблема .....	200
<i>Зокиржонova Ф. Р., Рихситиллаева Д. Р., Меликузиева Ш. А.</i>	
Межкультурный диалог как инструмент воспитания гармоничной личности в школе .....	203
<i>Махмудхожаев Ориф Бахтиёрвич</i>	
Talaba yoshlarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar .....	205
<i>Xojametov Ajiniyaz Andriyanovich</i>	
Методика формирования познавательных интересов у младших школьников в процессе выполнения творческих заданий на уроках русского языка .....	207
<i>Юлдашева Тахмина Бону Гайратовна</i>	
Raqamli ta'lim texnologiyalari asosida ingliz tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tinglab tushunishga o'rgatish usullari .....	210
<i>Abdurasulova Guljaxon Nabijon qizi</i>	
Fan va tabiatshunosligi asoslari mashg'ulotlarida tajribalar orqali bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi .....	215
<i>Abdusamatova Nargiza Jamolidinova, Xudayberganova Muqaddam Abdurashitovna</i>	
Bakteriofaglar tuzilishi va turlari (T-faglar) va ularning mikrobiekotizimdagi o'rni mavzusini o'qitish metodikasi .....	222
<i>Abdunazarova Zulayxo Sharifqulovna, Xo'janazarov O'ktam Eshtemirovich, Samikova Sevinch Toshtemir qizi</i>	
Bulung'ur doston ijrochiligining musiqiy xususiyatlari va ularni ta'lim jarayonida o'rgatishning pedagogik asoslari .....	227
<i>Babajanov Baxodir Allaberganovich</i>	
Activation of Students' Learning Activities Using Didactic Games .....	230
<i>Daminova Munajat Abduvoxobovna</i>	
Bolalar ensiklopediyasi vositasida tarbiyalanuvchilarning atrof-olam haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....	234
<i>Davlatova Guljaxon Kamoliddin qizi</i>	
Innovatsion yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ....	241
<i>Esanova Ro'shana Qurbonazarovna</i>	
Kreativ tafakkurning texnik muammolarni samarali hal qilishdagi o'rni va ahamiyati .....	248
<i>Imanov Baxtiyor Berdiyevich</i>	
Adabiyot va teatr san'ati vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy xulq-motivlarni shakllantirishda faollik markazlarining didaktik imkoniyatlari .....	253
<i>Inomova Dilnavoz Muzafar qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalari pedagog xodimlari mehnatini huquqiy tartibga solishning xususiyatlari .....	258
<i>Matekeyeva Bibinaz Mirjan qizi</i>	
Badiiy-estetik qadriyatlar va ularning o'ziga xosliklari .....	264
<i>Ostonova Gulrux Shuxrat qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga sharq allomalarining kitobxonlikka munosabatini tarixiy yondashuv asosida o'rgatishning ijtimoiy-tarixiy, zamonaviy va pedagogik xususiyatlari .....	268
<i>Parpibayeva Zulayho Rahimjon qizi</i>	
Al-Xorazmiyning ilmiy merosi vositasida talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning metodologik asoslari .....	272
<i>Qaxxorova Shaxnoza Abduvasit qizi</i>	
Musiqiy-badiiy did tarbiyasining ilmiy nazariy asoslari .....	276
<i>Rayimova Gavhar Karim qizi</i>	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-muloqot kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish.....	279
<i>To'laboyeva Iqbolxon Olimjanovna</i>	
Malakaviy amaliyot orqali bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy kompetentligini rivojlantiruvchi texnologiyalari....	282
<i>Tohirjonova Hulkaroy Baxodir qizi</i>	
Bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilariga chang cholg'usida Shashmaqom kuylarini o'rgatishning pedagogik yondashuvlari.....	288
<i>Toshpo'lotova Zulxumor Davlatboy qizi</i>	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirishning xususiyatlari .....	292
<i>Usmonov Sh. F.</i>	
The Formation of Human Capital In Education: A Pedagogical and Economic Analysis .....	297
<i>Uzoqova Shohida Mirzamurod qizi</i>	
“Птицы во рту” Саманты Швоблин: каннибализм нежности и зооморфный код магического реализма .....	302
<i>Каримов Зиёахмад Алишер угли</i>	
Формирование профессиональных качеств будущих учителей через активизацию учебной деятельности студентов с использованием дидактических игр в педагогических вузах.....	307
<i>Расулова Исмигуль, Якубова Зухра</i>	
Bolalar adabiyotini rivojlantirishda innovatsion yondashuv .....	311
<i>Mirzayeva Nigora Bozorovna</i>	
Issues of Developing Communicative Competence in Future Teachers from the Point of View of an Andragogical Approach.....	314
<i>Nishanova Mastura Khafizovna</i>	
Raqamli va innovatsion ta'lim texnologiyalari vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida adabiy kompetensiyalarni rivojlantirish modeli.....	317
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning testologik kompetentligini rivojlantirish muammosining ilmiy-nazariy asoslari .....	324
<i>Nuraliyev Islom Saidaliyevich</i>	
Концепт глаза в русской и узбекской лингвокультуре.....	328
<i>Кодирова Дилдора Абдуназар кизи, Асанов Руслан Арсенович</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutq kompetensiyasini rivojlantirishda STEAM texnologiyasi asosida mashq tizimini takomillashtirish.....	334
<i>Eshonova Dilnoza Abrorovna</i>	
Boshlang'ich maktabda tabiiy fanlarni o'qitishning integratsiyalashgan dars shakllari va zamonaviy vositalari .....	337
<i>Bekmetova Shoxida Qodirberdiyevna, Nishonxo'jayeva E'zoza Nig'mon qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining deontologik kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar.....	342
<i>Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li</i>	
Zoologiya darslarida “Qushlar sinfi” mavzusini o'qitishning didaktik tamoyillari va metodik imkoniyatlari....	347
<i>Xaqberdiyeva Shoirra Tursunaliyevna, Norboyeva Naima Begali qizi</i>	
O'quv tayyorlov guruhi gandbolchilarida mashg'ulot yuklamalarini rivojlantirish samaradorligi .....	352
<i>Shermuxeimedova N.N., Saylavova Aida Alisher qizi</i>	
Ikkinchi tartibli differensial tenglamalar uchun lokal chegaraviy masalalar: nazariya va tatbiqlari.....	356
<i>Musurmanova Nilufar Allamurat qizi</i>	
“Boychechak” qo'shig'ida ajdodlar turmush tarzi motivlari.....	360
<i>S. Matchanov, U. F. Xabibullayev</i>	
Фразеологизмы русского языка как зеркало национальной картины мира: лингвокультурологи-ческий анализ и методика преподавания в современной школе .....	365
<i>Мустанов Убайдулло Зулпанович</i>	
Oliy ta'limda udl yondashuvi asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish.....	369
<i>Yunusova Xusnora Shuxrat qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Art-pedagogik vositalar asosida talabalarning kasbiy mobilligini rivojlantirish..... 372 <i>Usmonova Qumriniso Saydaliyevna</i>
	Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlarning klassifikatsiyasi, pedagogik funksiyalari va raqamli ta'lim muhiti sharoitida integratsiyalashuvi..... 375 <i>Ortiqboeva Zumradxon Xasanboy qizi</i>
	Ta'lim jarayonida gamifikatsiya texnologiyasining qo'llanilishi ..... 378 <i>Abdufatayev Sherjaxon Abduazimovich, Yaxshiboyev Temur-Malik Erkin o'g'li</i>
	Interaktiv o'yinlar asosida dasturlashni o'qitish: "Kod bo'lagini top" o'yinining pedagogik samaradorligi ..... 381 <i>Xudayberganov Yashin Komilovich, Xonto'rayev Ibroxim Abdikamol o'g'li</i>
	Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari ..... 385 <i>Temirova Shoxsanam Komilovna</i>
	Kreativ kompetensiyani rivojlantirishda akademik muhit va shaxslararo munosabatlarning psixologik mexanizmlari ..... 389 <i>Abdurazzaqov Shuxratbek Zafarjon o'g'li</i>
	Talaba yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari ..... 392 <i>Fayziyeva Muqaddas Akbar qizi</i>
	STEAM ta'lim texnologiyasining mohiyati va uni boshlang'ich ta'limda qo'llash imkoniyatlari ..... 397 <i>Abrorxonova Kamola Abrorxon qizi, Kamoljonova Iroda Niyazjon qizi</i>
	Zamonaviy yoshlar dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari ..... 400 <i>Abdullayeva Nilufar Sadikjanovna</i>
	An'anaviy xonandalik ijrochiligida ovoz tarbiyasining shakl, usul va metodlari ..... 403 <i>Abdusalomova Iroda Xabibulloyevna</i>
	Tibbiyot talabalari orasida kasbiy motivatsiyaning psixologik omillari ..... 407 <i>Abduxamidov Abbas Muhiddin o'g'li, Rajabov Temurbek Baxtiyor o'g'li, Boboyeva Maxsuda Ataxanovna</i>
	Metakognitiv yondashuv asosida talabalar irodaviy sifatlarini rivojlantirishning kognitiv va psixologik asoslari ..... 410 <i>Axatov Yo'ldoshjon Hamzayevich</i>
	A Model for Developing Transversal-Methodological Competencies in Future Educators ..... 415 <i>Ergasheva Barno Ziyavitdin kizi</i>
	Historical Development of Project-Based Learning in Language Teaching ..... 419 <i>Fayziyeva Ozoda Erkin Kizi</i>
	Axloq shakllanishining psixologik xususiyatlari: shaxs rivojlanishida ichki nazorat va motivatsiya mexanizmlari ..... 423 <i>Ibaydayeva Munisa Aybek qizi</i>
	Neyropedagogik texnologiyalar asosida emotsional kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion didaktik modeli..... 427 <i>Mirzaraxmonova Shaxnoza Mirzaaxmadovna</i>
	O'zbekistonda maktabgacha ta'limga xorijiy tajribalarni integratsiya qilish: Yaponiya davlati misolida ..... 432 <i>Narimanova Saida Narimon qizi</i>
	Ijtimoiy tarmoqlarda yolg'on ma'lumotlar tarqalishining psixologik va ijtimoiy mexanizmlari hamda unga qarshi kurashish muammolari ..... 436 <i>Nurmatov A. N.</i>
	Metodik savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik va metodologik jihatlari (Biologiya fani misolida) ..... 439 <i>Rahimova Mahliyo Akramovna</i>
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ularning matematik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari..... 444 <i>Shabatova Rabig'a Janasbay qizi, Muxitdinova Nodira Mamalatifovna</i>
	Oliy ta'lim muassasalarida talabalar ommaviy sportini rivojlantirishning pedagogik tizimini takomillashtirish konsepsiyasi..... 448 <i>Ummatov Nozim Raimjonovich</i>
	O'quv jarayonida differensial topshiriqlarning o'rni va ularning ahamiyati ..... 453 <i>Xoldarova Irodaxon Valijonovna, Xakimova Ma'mura Davlatjon qizi</i>



Biologiya ta'limida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning o'rni .....	457
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna</i>	
Genetika mavzularini o'qitishda tahliliy faoliyatni tashkil etish metodlari, vositalari va shakllari.....	461
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Dosov Rustam Alisherovich</i>	
Hayvonlarning xilma- xilligi mazvusini o'qitishda multimedia, 3D format modellari va virtual lobaratoriya asosida o'qitish metodikasi .....	466
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Murodullayeva Sarvinoz O'tkirbek qizi</i>	
Tog'ayli baliqlar mavzusini o'qitishning didaktik tamoyillari, pedagogik shart-sharoitlari va metodik yondashuvlari.....	473
<i>Xaqberdiyeva Shoira Tursunaliyevna, Qodirova Nurshoda Olim qizi</i>	
A Comparative Analysis of Lexical Transformations in Abdulla Qahhor's Prose "Tolka" .....	478
<i>Kasimova Nafisa Farhodovna, Safarova Maftuna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi .....	482
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
Gnosiologik yondashuv asosida mustaqil ta'lim jarayonini loyihalash.....	485
<i>Xidirova Dildora Zayniddinovna</i>	
Nemis tilini o'qitishda sun'iy intellekt asosidagi ta'lim vositalari.....	491
<i>Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna</i>	
Kasbiy nutqda til me'yorlariga rioya qilish muammolari.....	495
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	498
<i>Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna</i>	
Теоретические и практические аспекты развития одарённых студентов .....	502
<i>Байбаева Мухайё Худойбергеновна, Зайниддинова Хилола Абдулвахоб кизи</i>	
Организация проектной деятельности во внеурочной работе по математике при изучении темы "дроби" в начальных классах .....	508
<i>Бахытбаева Шахнозбану Махмуд кызы, Садыкова Альбина Венеровна</i>	
Традиционные методы развития навыка говорения в обучении иностранному языку .....	511
<i>Давронбекова Фарангис Давроновна</i>	
Описание скоростных качеств футболистов .....	517
<i>Мадаминов Орибджан Нишанбаевич</i>	

# “BOYCHECHAK” QO'SHIG'IDA AJDODLAR TURMUSH TARZI MOTIVLARI



**S. Matchanov**

ChDPU professori, pedagogika fanlari doktori

**U. F. Xabibullayev**

O'zDJTU, Umumiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

**ORCID: 0009-0003-5144-789X**

**Annotatsiya:** “Boychechak” xalq qo'shig'ining mazmun-mohiyati, undagi arxaik dunyoqarash unsurlari hamda ajdodlar turmush tarzi bilan bog'liq motivlar tahlil etiladi. Qo'shiqdagi ramziy obrazlar orqali qadimgi insonlarning tabiatga, fasllarga va marosimlarga munosabati yoritiladi. Shuningdek, boychechak obrazi asosida qadimgi e'tiqodlar, totemistik qarashlar va marosimiy an'analar ilmiy jihatdan izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** Boychechak, folklor, xalq qo'shiqlari, arxaik dunyoqarash, totemizm, marosim qo'shiqlari, Navro'z, ramziy obraz, qadimgi e'tiqodlar.

**Abstract:** The content and essence of the folk song “Boychechak,” as well as the elements of archaic worldview and motifs related to the lifestyle of ancestors, are analyzed. Through symbolic imagery, the attitudes of ancient people toward nature, seasons, and ritual practices are revealed. In addition, ancient beliefs, totemistic views, and ritual traditions are scientifically interpreted based on the image of the boychechak.

**Key words:** Boychechak, folklore, folk songs, archaic worldview, totemism, ritual songs, Navruz, symbolic image, ancient beliefs.

**Аннотация:** Анализируются содержание и сущность народной песни “Бойчечак”, а также элементы архаического мировоззрения и мотивы, связанные с образом жизни предков. Через систему символических образов раскрывается отношение древних людей к природе, временам года и обрядовой практике. Кроме того, на основе образа бойчечака с научной точки зрения интерпретируются древние верования, тотемистические представления и обрядовые традиции.

**Ключевые слова:** Бойчечак, фольклор, народные песни, архаическое мировоззрение, тотемизм, обрядовые песни, Навруз, символический образ, древние верования.

## KIRISH

Insoniyat tarixida xalq og'zaki ijodi ajdodlar tafakkuri, dunyoqarashi va turmush tarzining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Xususan, marosim qo'shiqlari insonning tabiat bilan uyg'un hayot kechirgan davrlarini, uning kosmologik tasavvurlarini va mifologik ongini badiiy ifodalaydi. “Boychechak” qo'shig'i ana shunday qadimiy qo'shiqlardan biri bo'lib, unda bahor faslining kirib kelishi, tabiatning uyg'onishi va inson ruhiyatidagi o'zgarishlar aks etgan.



## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalq og'zaki ijodining ilmiy ahamiyatini ko'plab olimlar ta'kidlagan. Akademik V. V. Radlov o'zining "Образцы народной литературы тюркских племен" asarida turkiy xalqlar qo'shiqlarining qadimgi mifologik qatlamini ochib bergan holda, ularning tabiat kuchlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi: "Xalq qo'shiqlari – bu qadimgi tafakkurning tirik xotirasi, unda insonning tabiiy muhitga bo'lgan dastlabki munosabatlari saqlangan" <sup>[1]</sup>. Ushbu fikr "Boychechak" qo'shig'ining o'rganilishi uchun asosiy ahamiyat kasb etadi, chunki bu qo'shiq aynan shunday arxaik tafakkur qoldig'idir.

Folklorshunos To'ra Mirzayev xalq qo'shiqlarining genezisini tadqiq qilib, quyidagi xulosaga keladi: "Marosim qo'shiqlari xalq ongining eng qadimgi qatlamini ifodalaydi va ular orqali etnik dunyoqarash, kosmologik tasavvurlar, tabiat bilan uyg'unlikni ifodalovchi dastlabki tushunchalarni o'rganish mumkin" <sup>[2]</sup>. Bu fikr "Boychechak" qo'shig'ining tadqiqoti uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mifolog U. Eliade qadimgi jamiyatlarning tabiat marosimlarini o'rganib, "Bahorning kelishi qadimgi inson uchun nafaqat tabiiy hodisa, balki kosmik yangilanish, ilohiy kuchlarning uyg'onishi demakdir", deb ta'kidlaydi <sup>[3]</sup>. Aynan shu nuqtai nazardan "Boychechak" qo'shig'ini tahlil qilish, undagi arxaik dunyoqarash qoldiqlarini aniqlash imkonini beradi.

Professor Oxunjon Safarov esa bolalar adabiyoti va folklor muammolarini o'rganib, "Boychechak erta bahorda ochiladigan gul ekanligi bilan birga, tarixiy hodisalarning umumlashma obrazi hamdir", deb yozadi <sup>[4]</sup>. Bu fikr qo'shiqning tarixiy qatlamini o'rganish uchun muhim yo'nalishni ko'rsatadi.

Folklorshunoslikda turmush tarzi motivlari – bu xalqning kundalik hayot faoliyati, mehnat jarayonlari, maishiy munosabatlar, urf-odatlar va marosimlarini ifodalovchi badiiy vositalar tizimidir. Bu motivlar xalq og'zaki ijodining eng barqaror va uzoq muddatli saqlanib qoladigan qismlaridan biri bo'lib, avlodlar o'rtasida madaniy merosni uzatuvchi vazifani bajaradi. Turmush tarzi motivlari xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatining, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining, ekologik bilimlarining badiiy ifodasi sifatida qadrlanadi va etnografik manba sifatida katta ahamiyatga ega.

Olimlar turmush tarzi motivlarini quyidagi xususiyatlari bilan ajratib ko'rsatadilar:

- *birinchidan*, ular jamoaviy ijod mahsuli bo'lib, an'anaviy shaklda avloddan avlodga o'tadi, bu esa ularning xronologik uzluksizligini va barqarorligini ta'minlaydi;
- *ikkinchidan*, ular ma'lum ijtimoiy-madaniy muhit bilan chambarchas bog'liq, ya'ni geografik muhit, iqlim sharoiti, iqtisodiy faoliyat turi motivlarning shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi;
- *uchinchidan*, turmush tarzi motivlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib, yangi qatlam qo'shadi, lekin asosiy strukturani saqlab qoladi, bu "muzokarali an'anaviylik" (negotiated tradition) hodisasidir;
- *to'rtinchidan*, turmush tarzi motivlari funksional jihatdan amaliy va badiiy vazifalarni birgalikda bajaradi – ular nafaqat ma'lum marosimni amalga oshirishda qo'llanadi, balki estetik zavq ham baxsh etadi;
- *beshinchidan*, bu motivlar simvolik va ramziy tizimga ega, ya'ni oddiy kundalik predmetlar va hodisalar maxsus madaniy ma'nolarni kasb etadi.

Folklorshunos V. Y. Propp o'zining "Folklor va haqiqat" asarida turmush tarzi motivlarining transformatsiya qonuniyatlarini tadqiq qilib, ularning "badiiy shaklda saqlanib, mazmun jihatdan yangilanishini" ta'kidlagan. Uning fikricha: "Xalq og'zaki ijodida turmushiy detallar asta-sekin badiiy obrazlarga aylanadi, ular o'zining bevosita amaliy funksiyasini yo'qotib, ramziy ma'no kasb etadi" <sup>[5]</sup>. Bu fikr "Boychechak" qo'shig'idagi turmush tarzi motivlarini tahlil qilishda asosiy metodologik tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

To'ra Mirzayevning ta'kidlashicha: "Turmush tarzi motivlari xalqning tarixiy xotirasining tirik saqlanuvchisidir, ular orqali qadimgi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin" <sup>[6]</sup>. Bu motivlar etnografik manba sifatida o'rganiladi va xalq etnografiyasini boyitadi.

Tadqiqotchi Mamatqul Jo'rayev o'zining "O'zbek mavsumiy marosim folklori" asarida turmush tarzi motivlarining genezisini tahlil qilib, quyidagi xulosaga keladi: "Turmush tarzi motivlari qadimgi mehnat jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular avvalo mehnat qo'shiqlari shaklida yuzaga kelgan, keyinchalik marosimiy va o'yinkulgi funksiyalarini qo'shib olgan" <sup>[7]</sup>. Bu fikr "Boychechak" qo'shig'ining turmush tarzi motivlarini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

Turmush tarzi motivlari tizimini o'rganishda struktural-funksional yondashuv muhim o'rin tutadi. Bu yondashuvga ko'ra, har bir motiv ma'lum ijtimoiy funksiyani bajaradi va boshqa motivlar bilan tizimli bog'liqlikda mavjud bo'ladi. "Boychechak" qo'shig'ida turmush tarzi motivlari o'zaro bog'liq tizim hosil qiladi: agrar-iqtisodiy motivlar (qozon, ayron) marosim-urf-odat motivlari (boychechakni tut yog'ochga osish) va sotsial-munosabat motivlari (bolalarning keksalarga murojaati) bilan uyg'unlashib, butun badiiy tasvirni yaratadi.

Turmush tarzi motivlarining yana bir muhim xususiyati – ularning kosmologik o'lchamga ega bo'lishidir. Qadimgi jamiyatda kundalik hayot faoliyati kosmik tartib bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Mehnat jarayonlari, marosimlar va urf-odatlar kosmologik tasavvurlarga asoslangan. "Boychechak" qo'shig'idagi "tut yog'ochga osish" motivi aynan shunday kosmologik o'lchamga ega – bu yerda kundalik predmet (tut yog'ochi) kosmik markaz (axis mundi) sifatida qabul qilinadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Zamonaviy folklorshunoslikda turmush tarzi motivlarini o'rganishda etnografik, lingvistik, antropologik va psixanalitik usullar qo'llaniladi. Bu kompleks yondashuv orqali motivlarning ko'p qirrali tabiati, ularning madaniy funksiyalari va semantik mohiyati ochiladi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

#### "Boychechak" qo'shig'ida ajdodlarimiz turmush tarzi motivlari

"Boychechak" qo'shig'ida agrar jamiyatning asosiy turmush tarzi – dehqonchilik va chorvachilik aks etgan. "Qozon to'la ayrondir" misrasi qadimgi turmush tarzining iqtisodiy jihatini ifodalaydi. Bu yerda ayron – qo'y sutidan tayyorlangan, o'zbek milliy oshxonasining muhim komponenti, qozon esa har bir o'zbek uyining markaziy predmetidir. Bu motivlar qadimgi dehqonchilik jamiyatining oziq-ovqat madaniyatini, chorvachilik mahsulotlaridan foydalanishni ko'rsatadi.

Etnografik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qadimgi o'zbeklarda ayron nafaqat oziq-ovqat, balki muqaddas ichimlik sifatida ham qabul qilingan. Navro'z marosimlarida ayron bilan suv aralashmasi "hayot suvi" deb atalgan va yangi yilning barcha xonadonlarga baraka olib kirishini ramziy ifodalagan. Qadimgi dehqonchilik jamiyatida qozon nafaqat osh pishirish vositasi, balki oila barakasining, xonadon farovonligining ramzi sifatida qabul qilingan. "Qozon to'la" bo'lishi – bu oilaning to'yimli hayoti, chorvachilikning rivojlanishi, turmush samaradorligining ko'rsatkichi.

Ayron va qozon kabi turmush predmetlarining qo'shiqqa kiritilishi uning iqtisodiy-madaniy qatlamini ochib beradi. Bu motivlar orqali biz qadimgi ajdodlarimizning chorvachilik bilan shug'ullanganini, sut mahsulotlarini keng iste'mol qilganini, milliy oshxonaning shakllanish jarayonlarini kuzatishimiz mumkin. "Ayroningdan bermasang, qozon-tavog'ing vayrondir" misralari esa iqtisodiy munosabatlarning badiiy ifodasidir. Bu yerda boychechak bilan "savdo-sotiq" qilish, uning ne'matlari evaziga "to'lov" talab qilish kabi arxaik tushunchalar saqlangan.

Agrar-iqtisodiy motivlarning yana bir muhim jihati – ularning kosmologik o'lchamga ega bo'lishidir. Qadimgi dehqonchilik jamiyatida hosil olish jarayoni kosmik kuchlar bilan uzviy bog'liq deb tushunilgan. Ayron va qozon nafaqat moddiy ne'mat, balki ilohiy baraka, yer-ona va osmon-ota ne'matlarining ramzi sifatida qabul qilingan. Shuning uchun "Boychechak" qo'shig'ida bu predmetlar marosimiy kontekstda paydo bo'ladi – ular qadimgi qurbonlik marosimining bir qismi sifatida taqdim etiladi.

Qo'shiqning ikkinchi qismida "boychechakni tut yog'ochga osish", "qilich bilan chopish", "baxmal bilan yopish" epizodlari qadimgi marosimlarning fragmentlaridir. Bu motivlar turmush tarzining marosimiy qatlamini ifodalaydi. Qadimgi jamiyatlarda har bir muhim hayotiy hodisa – hosil yig'ish, yangi yil boshlanishi, urug' ekish – maxsus marosimlar bilan kuzatilgan.

"Marosimning eposda aks etishi haqida so'z ketar ekan, uning asosan ikki jihati mavjud:

- a) maishiy turmushda o'z ijro o'rniga ega bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotida mustahkam o'rin egallagan;
- b) maishiy turmushda ijro o'rni unutilib, badiiy holatga ko'chgan" [6].

"Boychechak" qo'shig'ida biz ikkala holatni ham kuzatamiz – qo'shiq hali ham marosimiy funksiyani bajaradi va badiiy ifoda sifatida saqlanib qolgan.

"Boychechakni tut yog'ochga osish" epizodi qadimgi "dunyo o'qi" (axis mundi) tasavvurlari bilan bog'liq. Tut yog'ochi O'rta Osiyo mifologiyasida kosmik markaz sifatida qabul qilingan – uning ildizlari yer osti olamiga, poyasi yerga, shoxlari osmonga yetadi. Boychechakni shunday muqaddas daraxtga osish uning ilohiy olam bilan bog'liqligini, kosmologik vazifasini ifodalaydi. Bu marosim qadimgi jamiyatlarda yangi yil, yangi hosil, yangi hayot boshlanishini nishonlash uchun amalga oshirilgan.

"Qilich bilan chopish" va "baxmal bilan yopish" epizodlari esa murakkab marosimiy amallarni ifodalaydi. Qilich qadimgi jamiyatda nafaqat urush quroli, balki marosimiy predmet sifatida ham qo'llangan. Qilich bilan "chopish" – bu "o'ldirish-ozod qilish" ritualining fragmenti, ya'ni eski, qishki hayotning o'zini qurbongohga keltirish va yangi bahoriy hayotga yo'l ochishdir. "Baxmal bilan yopish" esa tiklash, yangidan jonlantirish marosimini ifodalaydi – qimmatbaho mato bilan o'rash orqali boychechakka yangi ma'no, yangi hayot baxsh etiladi.



Bu marosim urf-odat motivlari qadimgi jamiyatning siklik vaqt tasavvurlarini aks ettiradi – qishning o'limi va bahorning tiklanishi, tabiatning uyg'onishi va hosilning yangilanishiga oid marosimlar tasviri orqali jamiyat a'zolari o'zlarini kosmik tartibning bir qismi sifatida his etgan, tabiat kuchlariga ta'sir o'tkazishga uringan va jamoaviy yagonalikni mustahkamlagan.

Qo'shiqning naqorat qismida “qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechak” misrasi qadimgi jamiyatning ijtimoiy qatlami haqida ma'lumot beradi. “Qattiq yer” va “yumshoq yer” taqqoslamasi turmush sharoitining turlichaligini, hayotda to'siqlarni yengish zaruratini ifodalaydi. Bu motivlar jamiyat a'zolarining bir-biriga o'zaro yordam berishi, qiyinchiliklarga qarshi birgalikda kurashishi ruhini tarbiyalaydi.

“Qattiq yerdan qatalab chiqish” metaforasi jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy axloqiy-qoidaviy ma'noga ega. Bu yerda boychechak nafaqat gul, balki insoniyat timsoli sifatida qabul qilinadi – qiyinchiliklarga qaramay, to'siqlarni yengib, yangi hayotga intilish. Bu motiv qadimgi jamiyatda mehnatsevarlik, bardoshlilik, iroda kuchini tarbiyalashning muhim vositasi bo'lgan.

“Boychechagim boylandi” murojaati esa sotsial munosabatlarning ierarxik jihatini ifodalaydi. “Boylanish” – bu nafaqat boylikka ega bo'lish, balki bag'rikenglik, mehmondo'stlik, jamoaga foyda keltirish fazilatidir. Boychechak “boylanib”, ya'ni jamoaga ne'mat tarqatib, o'zining ijtimoiy vazifasini bajaradi. Bu yerda iqtisodiy va ma'naviy boylik tushunchalari uyg'unlashgan.

Qo'shiqda bolalar va keksalar o'rtasidagi munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Bolalar “Navro'z elchisi” sifatida boychechakni terib, keksalarga olib boradilar, ularning duosini oladilar. Bu ijtimoiy funktsiya ikki avlod o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni, an'anaviy madaniyatni avloddan avlodga uzatish mexanizmini ifodalaydi. Keksalarning “duosi” – bu nafaqat diniy marosim, balki jamiyat tajribasining, donolikning yangi avlodga o'tkazilishidir.

Ijtimoiy munosabat motivlarining yana bir jihati – ularning gender jihatdan ochilishidir. Qo'shiqda “boychechak” ayolona timsol sifatida ham qabul qilinishi mumkin – u “boylanadi”, ya'ni homilador bo'ladi, ne'mat tarqatadi. Bu qadimgi jamiyatning reproduktiv funksiyalarini, nasl davom ettirishning muhimligini ifodalaydi. Shuningdek, qo'shiqni ayollar va bolalar ijro etishi ham gender munosabatlarni aks ettiradi.

Qo'shiqda boychechak guli markaziy obraz sifatida qo'llangan. Bu oddiy bahoriy gul qo'shiqda muqaddas mavjudot, yangi hayot ramzi, Navro'z elchisi maqomiga ko'tariladi. Boychechak “tut yog'ochga osiladi”, “qilich bilan chopiladi”, “baxmal bilan yopiladi” – bu harakatlar gulga nafaqat jismoniy, balki ramziy-ma'naviy munosabatni ifodalaydi. Asqar Musaqluv ta'kidlaganidek, arxaik dunyoqarashda o'simliklar jonli va ongli deb tushunilgan, ko'p xalqlar o'z ajdodlarini o'simliklar totemi bilan bog'lagan. Boychechak obrazi qadimgi turklarning “yashil koinot” tasavvurlarining ifodasi bo'lib, bu gul orqali inson tabiat bilan uyg'unlikni, ekologik muvozanatni ta'minlashga intiladi. Gulning rangi, hidi, shakli badiiy tafsilotlar sifatida ishlatilib, ular orqali bahorning kelishi, tabiatning yangilanishi tasvirlanadi. Boychechak obrazi, shuningdek, ayollarning go'zalligi, pokligi, halolligi ramzi sifatida ham talqin qilinadi, bu esa qo'shiqning ko'p qatlamli ma'no tizimini shakllantiradi.

Qo'shiq orqali yosh avlodga mehnatsevarlik, tabiatni asrash, jamoaviy hamkorlik kabi fazilatlar singdiriladi. Bolalar marosimda ishtirok etib, ekologik madaniyatni, tabiat bilan uyg'un munosabatlarni o'rganadilar. Marosim ma'lum ma'noda epos syujet halqasining yuzaga kelishiga zamin bo'lishi bilan birga, bevosita estetik funktsiyani ham bajaradi. Qo'shiq bolalarning badiiy didini shakllantiradi, ularda musiqiy hissiyotni uyg'otadi, xalq og'zaki ijodiga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Marosim jarayonida bolalar kattalarni kuzatib, ularning harakatlari takrorlaydilar, bu orqali ijtimoiy tajriba to'plab, hayotiy ko'nikmalarni egallaydilar. Boychechak guli orqali tabiatning go'zalligi, uning inson hayotidagi ahamiyati haqida tasavvurlar shakllanadi. Qo'shiqning pedagogik ahamiyati shundaki, u bolalarni milliy an'analarga, urf-odatlarga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularning milliy o'zligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qo'shiqda kundalik oddiy hayot hodisalari badiiy obrazlar orqali ifodalangan. Boychechak mehnatkash inson ramzi sifatida talqin qilinadi: “Axir u qattiq yerdan qatalab chiqqan boychechakning o'zi-da”, degan xalq gapida bu gulning mehnat va matonat ramzi ekanligi ta'kidlanadi. Shukur Shomaqsudov ta'kidlaganidek, folklor janrlarining hayotiy-estetik vazifasi xalqning maishiy hayoti, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Qo'shiqda epik tus – voqealarning ketma-ket bayoni, harakatlarning tavsifi bilan birga, lirik kayfiyat – bahorning kelishidan chinakam xursandchilik, tabiat go'zalligidan zavqlanish ham mujassam etilgan. Bu ikki uslubning uyg'unligi qo'shiqning badiiy ta'sirini kuchaytiradi, uni bir vaqtning o'zida hikoya qilish va kayfiyat ifodalash vositasiga aylantiradi. Qo'shiqda zamon va joy belgisizligi – xronotopning umumiyliги saqlanib, bu uning barcha davrlar, barcha mintaqalar uchun qadriy ekanligini ta'minlaydi.

Qo'shiq tilida takrorlar, ohangdoshliklar, qofiyalar qonuniy ravishda qo'llangan. “Tutdilar – osdilar”, “bo'ldilar – yopdilar” kabi takroriy konstruksiyalar marosimiy harakatlarning ritmik ketma-ketligini ifodalaydi. Sodda, biroq ifodali til qo'shiqning bolalar va kattalar tomonidan oson egallanishini ta'minlaydi. Qo'shiqda sinonimik boylik, antonimik ziddiyatlar, metaforik ifodalar keng qo'llangan. Tilning xalq tiliga yaqinligi, dialektizm va professional leksikaning yo'qligi uning keng ommalashishiga yordam beradi. Ohangdoshliklar orqali qo'shiqning musiqiyliги, ritmik tuzilishi ta'minlanadi, bu esa uni yod olishni osonlashtiradi. Qo'shiq matnida epitetlar, metaforalar, personifikatsiyalar orqali boychechak guli jonli obrazga aylanadi, uning xarakteri, kayfiyati tasvirlanadi. Tilning badiiy ifodaviyligi qo'shiqning estetik ta'sirini oshiradi, uni xalq ijodining yuksak namunasiga aylantiradi.

**XULOSA VA TAKLIFLAR**

“Boychechak” qo‘shig‘i turmush tarzi motivlarining badiiy ifodasi sifatida tarixiy, pedagogik va estetik funksiyalarni birgalikda bajaradi. U qadimgi ajdodlarimizning bahoriy marosimlari, tabiatga bo‘lgan munosabatlari, dehqonchilik faoliyatini saqlab qolgan bo‘lib, xalq badiiy ongining yorqin namunasidir. Qo‘shiqning ko‘p qirrali funksional vazifalari uning milliy madaniyatda egallagan o‘rnini, avlodlar o‘rtasida uzatilishini, zamonaviy davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmasligini ta’kidlaydi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Радлов В. В. Образцы народной литературы тюркских племен. – Санкт-Петербург, 1866–1907.
2. Mirzayev T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1990.
3. Eliade M. Aspects du mythe. – Paris: Gallimard, 1963.
4. Safarov O. Bolalar adabiyoti va folklor. – Toshkent: O‘qituvchi, 1985.
5. Пропп В. Я. Фольклор и действительность (Фольклор ва ҳақиқат). – Москва: Наука, 1976.
6. Mirzayev T. O‘zbek folklori asoslari. – Toshkent: Fan, 2001.
7. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008.
8. Jo‘rayev M., Eshonqulov J. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2017.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №4(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.